

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLODI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIVAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	



XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH

Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtoevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada xorijiy mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog'iston) davlat sektori ichki audit tajribasini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot muammosi — milliy me'yoriy-huquqiy bazada muhimlilik va risk darajalarini aniqlash bo'yicha takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarning mavjudligidan iborat. Qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv va modellashirish asosida besh tamoyilga tayangan uch bosqichli (o'rganish — tahlil va adaptatsiya — joriy etish) moslashtirish konseptual modeli ishlab chiqildi, olti ustuvor yo'nalish belgilandi hamda muhimlilikning tabaqalashtirilgan darajalarini (5,0; 3,5 va 1,5 foiz) sektor koeffitsiyentlari bilan milliy me'yoriy hujjatlarga joriy etish bo'yicha takliflar asoslandi. Natijalar milliy ichki audit tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish uchun uslubiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, moslashtirish modeli, ichki audit, davlat sektori, muhimlilik darajalari, me'yoriy-huquqiy baza, ISSAI, me'yoriy takomillashtirish yo'nalishlari.

Abstract. The article examines the adaptation of public sector internal audit practices of foreign countries (the United States, Germany, Russia, and Kazakhstan) to the conditions of Uzbekistan. The research problem is associated with the need to further improve the national regulatory framework regarding the determination of materiality and risk levels. Based on comparative legal analysis, a systematic approach, and modelling methods, a conceptual adaptation model consisting of three stages (study — analysis and adaptation — implementation) and based on five principles was developed. Six priority areas were identified, and proposals were substantiated for introducing differentiated materiality levels (5.0%, 3.5%, and 1.5%) with sector-specific coefficients into national regulatory documents. The findings provide a methodological foundation for aligning the national internal audit system with international standards.

Keywords: foreign experience, adaptation model, internal audit, public sector, materiality levels, regulatory framework, ISSAI, regulatory improvement areas.

Аннотация. В статье исследуются вопросы адаптации опыта внутреннего аудита государственного сектора зарубежных стран (США, Германии, России и Казахстана) к условиям Узбекистана. Проблема исследования заключается в необходимости дальнейшего совершенствования национальной нормативно-правовой базы в части определения уровней существенности и рисков. На основе сравнительно-правового анализа, системного подхода и методов моделирования разработана концептуальная модель адаптации, основанная на пяти принципах и включающая три этапа (изучение — анализ и адаптация — внедрение). Определены шесть приоритетных направлений, а также обоснованы предложения по внедрению в национальные нормативные документы дифференцированных уровней существенности (5,0; 3,5 и 1,5%) с применением отраслевых коэффициентов. Полученные результаты создают методологическую основу для приведения национальной системы внутреннего аудита в соответствие с международными стандартами.

Ключевые слова: зарубежный опыт, модель адаптации, внутренний аудит, государственный сектор, уровни существенности, нормативно-правовая база, ISSAI, направления совершенствования нормативного регулирования.



KIRISH

Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida davlat boshqaruvini xalqaro andozalar asosida isloh qilish va davlat mablag'lari ustidan nazorat samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son qarori bilan ichki audit xizmatlarini tashkil etish bo'yicha huquqiy asoslar yaratildi hamda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonunning qabul qilinishi milliy ichki audit tizimining rivojlanishi uchun muhim institutsional asos bo'ldi [2; 3]. Biroq miqdoriy o'sish sifat muammosini to'liq hal etgani yo'q — ichki auditning tayanch jarayonlarini tartibga soluvchi uslubiy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

O'tkazilgan tahlillar milliy huquqiy tizimda ichki audit jarayonlarini yanada takomillashtirishni talab etuvchi ayrim yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatadi: jumladan, muhimlik chegarasini aniqlash metodikasini, ko'p omilli risk baholash matritsasini hamda riskka yo'naltirilgan yillik rejalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarurati mavjud. Shuningdek, hisobot shakllarini yanada standartlashtirish, IT-audit va auditorlarni sertifikatlash yo'nalishlarining me'yoriy asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya) hamda O'zbekistonga institutsional jihatdan yaqin MDH davlatlari (Rossiya, Qozog'iston) ushbu yo'nalishlarda muayyan tajriba va amaliy yondashuvlarni shakllantirgan. Mazkur tajribalarni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi — xorijiy mamlakatlar davlat sektori ichki audit tajribasini qiyosiy tahlil qilish asosida uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning konseptual modelini ishlab chiqish hamda muhimlikning tabaqalashtirilgan darajalarini milliy me'yoriy-huquqiy bazaga joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni asoslashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: rivojlangan mamlakatlar va MDH davlatlari tajribasini qiyosiy tahlil qilish; milliy huquqiy bazani takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va tizimlashtirish; moslashtirishning bosqichlari, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash; muhimlik darajalarining milliy me'yoriy hujjatlarga kiritilishi mumkin bo'lgan qiymatlarini asoslash.

Tadqiqot obyekti — davlat sektori ichki auditini tartibga soluvchi xalqaro va milliy institutsional-huquqiy tizimlar; predmeti — xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish jarayonida shakllanadigan uslubiy va huquqiy munosabatlar. Maqolaning keyingi qismlarida adabiyotlar sharhi, tadqiqot metodologiyasi, qiyosiy tahlil natijalari, moslashtirish modeli va me'yoriy takliflar muhokamasi hamda xulosa va takliflar izchil bayon etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat sektori auditing xalqaro me'yoriy asoslari INTOSAI standartlarida mujassamlashgan: muhimlik kategoriyasi davlat sektori uchun maxsus standartda tartibga solingan (INTOSAI, 2019), sifati muhimlikning summa mezonidan ustuvorligi esa Lima deklaratsiyasida mustahkamlangan (INTOSAI, 1977). Xususi sektor uchun muhimlikni belgilash tamoyillari xalqaro audit standartida bayon etilgan (IFAC, 2018), ichki audit faoliyatining zamonaviy talablari esa yangilangan global standartlarda umumlashtirilgan (IIA, 2024). Ushbu hujjatlar milliy tizimlarni isloh qilishda etalon vazifasini o'taydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti maxsus uslubiy hujjatlarda hujjatlashtirilgan: AQShda davlat audit standartlari tizimi — «Yellow Book» — 1972-yildan buyon muntazam yangilab boriladi (GAO, 2018), federal organlarda risk-menejment va ichki nazorat talablari esa budjet-ma'muriy idoraning maxsus sirkulyarida belgilangan (OMB, 2016). MDH makonida Rossiya Moliya vazirligining 193n-sonli standarti muhimlik darajasini belgilashning aniq uslubiyatini o'z ichiga olgan dastlabki hujjatlardan biridir (Rossiya Moliya vazirligi, 2010). Audit nazariyasida riskka yo'naltirilgan yondashuv va professional mulohaza masalalari fundamental asarlarda yoritilgan (Arens va boshq., 2018; Pikket, 2020); davlat sektori auditing o'ziga xos jihatlari esa maxsus adabiyotda tahlil qilingan (Bichkova va Itgilova, 2020).

Milliy ilmiy adabiyotda budjet nazorati va auditing nazariy asoslari (Ibragimov va Sugirbayev, 2010), budjet tashkilotlarida ichki auditni tashkil etish masalalari (Mehmonov, 2015; Ostonokulov va Abduraxmonov, 2019) hamda ichki nazorat tizimlarini baholash (Xamidova, 2021; Borisova va boshq., 2022) tadqiq etilgan. Biroq mazkur ishlarda xorijiy tajribani o'zlashtirishning yaxlit konseptual modeli — bosqichlari, tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari aniq belgilangan holda — taklif etilmagan, muhimlik darajalarining milliy me'yoriy hujjatlarga joriy etiladigan aniq qiymatlari ham asoslanmagan. Adabiyotlar sharhi ko'rsatadiki, xalqaro tajriba manbalari yetarlicha hujjatlashtirilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston sharoitiga tizimli ko'chirish mexanizmi ishlab chiqilmagan — ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot pragmatik falsafaga tayanadi va induktiv-deduktiv yo'nalishlarni uyg'unlashtiradi: xorijiy

mamlakatlar amaliyotini umumlashtirish (induksiya) asosida moslashtirishning umumiy modeli shakllantiriladi, so'ngra undan milliy me'yoriy baza uchun aniq takliflar (deduksiya) chiqariladi. Tadqiqot dizayni qiyosiy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, ko'p holatli qiyosiy tadqiqot (comparative multiple-case study) strategiyasiga qurilgan: tahlil obyekti sifatida to'rt mamlakat — AQSh, Germaniya, Rossiya va Qozog'iston — tanlangan; dastlabki ikkitasi eng rivojlangan modellarni, keyingilari esa O'zbekistonga institutsional jihatdan yaqin o'tish tajribasini ifodalaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi: qiyosiy-huquqiy tahlil — mamlakatlarning huquqiy asoslari, audit organlari maqomi va muhimlik darajalarini solishtirishda; tarixiy-mantiqiy usul — davlat sektori auditining evolyutsiyasini o'rganishda; tizimli yondashuv va modellashtirish — moslashtirish jarayonini bosqichlar, tamoyillar va yo'nalishlar yaxlitligi sifatida loyihalashda; statistik qiyoslash — xarajatlar, moslik darajalari va o'tish dinamikasi ko'rsatkichlarini tahlil qilishda; hujjatlar tahlili — milliy me'yoriy bazadagi bo'shliqlarni aniqlashda; jadval va grafik usullar — natijalarni ko'rgazmali taqdim etishda.

Axborot manbalari sifatida xalqaro tashkilotlar (INTOSAI, IIA, IFAC) hujjatlari, xorijiy oliy audit organlarining rasmiy uslubiy materiallari (GAO, OMB, BRH), Rossiya va Qozog'iston me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi hamda sohaga oid statistik ma'lumotlar xizmat qildi. Tadqiqotning ishonchiligi (reliability) faqat rasmiy va nufuzli manbalarga tayanilgani bilan, aniqliligi (validity) esa xulosalarning bir necha mustaqil mamlakat tajribasida o'zaro tasdiqlanishi (triangulyatsiya) orqali ta'minlandi. Tadqiqot etikasi barcha manbalarga Garvard uslubida havola berishni nazarda tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektori audit uzoq tarixiy rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, uning zamonaviy xalqaro institutsional shakllanishi XX asrda jadallashgan: ilk haqiqiy davlat audit organi — Angliyaning Exchequer xazina idorasi (1314-yil) bo'lsa, sohaning xalqaro muvofiqlashtirilishi 1953-yilda INTOSAI tashkil etilishi bilan boshlangan. Bugungi kunda mamlakatlarning sohaga e'tibori ichki audit xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatida yaqqol ko'rinadi: 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, AQShda bu ko'rsatkich 0,85 foiz, Buyuk Britaniyada 0,78, Germaniyada 0,72 foizni tashkil etsa, O'zbekistonda atigi 0,18 foiz — rivojlangan mamlakatlardan 4–5 barobar, MDH davlatlaridan esa 2 barobar past. Holbuki, xalqaro moliya institutlari ekspertlarining hisob-kitoblariga ko'ra, davlat sektori ichki auditiga sarflangan har bir dollar 5–8 dollar iqtisodiy samara keltiradi. Bu ma'lumotlar sohaga investitsiya kiritish va xorijiy tajribani jadal o'zlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Yetakchi mamlakatlar audit tizimlarining qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Xorijiy mamlakatlar davlat sektori audit organlarining asosiy xususiyatlari

№	Mamlakat	Organ	Huquqiy asos	Asosiy yo'nalishi
1	AQSh	GAO	OMB Circular A-123	Strategik va samaradorlik auditi
2	Germaniya	BRH	BHO §99	Samaradorlik va parlament nazorati
3	Buyuk Britaniya	NAO	National Audit Act 1983	Qiymat va samaradorlik
4	Kanada	OAG	FAA Section 134	Natijaviylik auditi
5	Avstraliya	ANAO	Auditor-General Act 1997	Samaradorlik va ishonchlilik
6	Rossiya	Schyotnaya palata	Budjet kodeksi, FZ-41	Moliyaviy va budjet nazorati
7	Qozog'iston	Moliyaviy nazorat qo'mitasi	Budjet kodeksi	Budjet ijrosi nazorati
8	Janubiy Koreya	BAI	Board of Audit Act	Hisob va samaradorlik


Manba: (GAO, 2018; OMB, 2016) va tegishli mamlakatlar rasmiy hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval tahlili ikki muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda oliy audit organlari mustaqil maqomga ega bo'lib, bevosita parlament oldida hisob beradilar: masalan, 1921-yilda tashkil etilgan va qariyb uch ming xodimga ega AQSh GAO idorasining rahbari — Bosh auditor — 15 yil muddatga tayinlanadi, bu uning siyosiy mustaqilligini ta'minlaydi; GAOning «Yellow Book» standartlari va riskni baholash uslubiyati dunyo bo'ylab etalon sifatida qo'llaniladi (GAO, 2018), federal organlarda risk-menejment talablari esa maxsus sirkulyarda mustahkamlangan (OMB, 2016). Germaniyaning BRH idorasi samaradorlik auditi va har yilgi mustaqil «Bemerkungen» hisoboti bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda muhimlik



darajalari deyarli bir xil tuzilmaga ega: umumiy muhimlik — 4,5–5,0 foiz, xatti-harakat muhimligi — 3,2–3,5 foiz, aniq muhimlik — 1,0–1,5 foiz. Holbuki, O'zbekiston amaliyotida muhimlik 4,5 foizdan 6,2 foizgacha bo'lgan o'zgaruvchan ko'rsatkichlarda qo'llanilmoqda, bu esa natijalarning qiyoslanuvchanligini buzadi.

MDH davlatlari tajribasi O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ularning institutsional sharoiti yaqinroq. Rossiyada Moliya vazirligining 193n-sonli standarti muhimlik darajasini belgilashning aniq uslubiyatini o'z ichiga olgan: muhimlik umumiy budget hajmining 5 foizi, aktivlarning 1 foizi va daromadning 2 foizi asosida hisoblanadi, bunda «sog'lom fikr tamoyili»ga ko'ra, asoslangan hollarda foizli formulalardan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi (Rossiya Moliya vazirligi, 2010). Qozog'istonda 2008-yilgi Budget kodeksi moliyaviy nazorat tizimini tubdan isloh qildi, 2014-yildan ichki audit xizmatlari tashkil etildi va mamlakat 2020-yilgacha ISSAI standartlarining 95 foizini joriy etishga erishdi. Ikkala mamlakatning riskka yo'naltirilgan auditga o'tish dinamikasi O'zbekiston ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tarzda 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. MDH davlatlarida riskka yo'naltirilgan ichki auditga o'tish dinamikasi (2018–2024 yillar)

Manba: muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, Rossiyada ushbu ko'rsatkich 2018-yildagi 25 foizdan 2024-yilda 85 foizga, Qozog'istonda 18 foizdan 80 foizga oshgan bo'lsa, O'zbekistonda 10 foizdan 58 foizga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda ham riskka yo'naltirilgan ichki audit tamoyillarini joriy etish bo'yicha ijobiy rivojlanish dinamikasi shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajriba bilan qiyoslaganda mazkur yo'nalishda rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. Rossiya va Qozog'iston tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy omillar aniqlandi: yuqori darajadagi institutsional qo'llab-quvvatlash, kadrlarni tizimli tayyorlash (milliy o'quv markazlari hamda CIPFA, ICAEW kabi xalqaro dasturlar), texnologik infratuzilmani rivojlantirish (maxsus IT-platformalar), me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish (IIA, INTOSAI). Mazkur omillar O'zbekiston davlat sektori ichki audit tizimini yanada rivojlantirishda muhim yo'nalishlar sifatida namoyon bo'ladi. Milliy holat tahlili esa rivojlantirish zarur bo'lgan ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi: xalqaro standartlarga moslik darajasi riskni baholash sohasida 58 foizni, muhimlikni aniqlash yo'nalishida esa 65 foizni tashkil etadi. Ushbu natijalar mazkur yo'nalishlarda me'yoriy-uslubiy bazani yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi (2-jadval).


2-jadval

Davlat sektori ichki auditining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish yo'nalishlari va taklif etilayotgan hujjatlar

№	Soha	Me'yoriy-huquqiy takomillashtirish yo'nalishi	Taklif etilayotgan hujjat
1	Muhimlilik aniqlash	Aniq metodika va formulalar yo'q	«Muhimlilik aniqlash yo'riqnomasi»
2	Risk baholash	Ko'p omilli matritsa yo'q	«Risk-xarita tuzish qoidalari»
3	Audit rejalashtirish	Riskka yo'naltirilgan yondashuv yo'q	«Yillik audit rejasi uslubiyati»
4	Hisobot tuzish	Standart shakllar to'liq emas	«Hisobot shakllari majmui»
5	IT-audit	Huquqiy baza umuman yo'q	«IT-audit to'g'risidagi Nizom»
6	Sertifikatlash	Auditorlarni sertifikatlash yo'q	«Sertifikatlash Nizomi»

Manba: milliy qonunchilik hujjatlari tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Aniqlangan bo'shliqlarni xorijiy tajriba asosida to'ldirish uchun mexanik ko'chirish emas, balki tizimli moslashtirish zarur. Shu maqsadda tadqiqot doirasida besh tamoyilga tayangan uch bosqichli konseptual model



2-rasm. Xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning konseptual modeli

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, model uch izchil bosqichni o'z ichiga oladi: birinchi bosqichda xalqaro standartlar, uslubiy yondashuvlar va IT vositalar kompleks tahlil qilinadi; ikkinchi bosqichda ular huquqiy moslashtirish, mahalliy statistika va milliy xususiyatlar prizmasidan o'tkazilib, adaptatsiya qilinadi; uchinchi bosqichda esa huquqiy baza yaratish, kadrlar tayyorlash va bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali milliy tizimga joriy etiladi. Modelning besh tamoyili moslashtirish sifatini kafolatlaydi: tadrijiylik — islohotlar birdaniga emas, ketma-ket qadamlar bilan amalga oshiriladi; milliy o'ziga xoslik — qonunchilik, madaniyat va iqtisodiy sharoit inobatga olinadi; huquqiy muvofiqlik — yangi normalarning amaldagi tizimga zid kelmasligi ta'minlanadi; mablag'-vosita yetarliligi — har bir qadam real resurslar bilan ta'minlanadi; kadrlar salohiyati — islohotlar tayyorlangan mutaxassislarga tayanadi. Model doirasida moslashtirishning olti ustuvor yo'nalishi va har biri uchun eng maqbul tajriba manbai belgilandi (3-jadval).



3-jadval

Xorijiy tajribani moslashtirishning ustuvor yo'nalishlari

№	Yo'nalish	Tavsiya etilgan manba	Moslashtirish usuli
1	Muhimlilik uslubi	ISSAI 1320, ISA 320 (AQSh, B.Britaniya)	Ko'rsatkichga asoslangan metodika
2	Risk modellari	GAO (AQSh), BRH (Germaniya)	Ko'p omilli matritsa va IRI
3	Audit rejalashtirish	OMB Circular A-123 (AQSh)	Riskka yo'naltirilgan reja
4	IT-audit	AQSh, Germaniya, Kanada	Maxsus IT-platforma
5	Kadrlar tayyorlash	IIA, INTOSAI dasturlari	Sertifikatlash tizimi
6	Huquqiy baza	Rossiya tajribasi (davlat moliyaviy nazorati standartlari)	Namunaviy uslubiy hujjatlar

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yo'nalishlarning ustuvorligi ham asoslandi: muhimlilik uslubi va risk modellari birinchi navbatda joriy etilishi lozim, chunki ular boshqa barcha ishlarning asosini shakllantiradi; auditni rejalashtirish va kadrlar tayyorlash — ikkinchi ustuvorlikdagi yo'nalishlar; IT-audit va huquqiy bazani to'liq modernizatsiya qilish esa ko'proq vaqt va mablag' talab etuvchi uzoq muddatli strategik yo'nalishlardir. Modelning markaziy amaliy natijasi — muhimlilikning tabaqalashtirilgan darajalarini milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga joriy etish taklifidir (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston uchun tavsiya etilayotgan muhimlilik darajalari va ularning xalqaro qiyosi

№	Muhimlilik darajasi	Xalqaro amaliyot	O'zbekiston uchun tavsiya	Joriy holat
1	Umumiy muhimlilik	4,5–5,0%	5,0%	4,5–6,2% (o'zgaruvchan)
2	Xatti-harakat muhimligi	3,2–3,5%	3,5%	Belgilanmagan
3	Aniq muhimlilik	1,0–1,5%	1,5%	Belgilanmagan
4	Sektor koeffitsiyenti	Qo'llaniladi	0,7–1,3	Qo'llanilmaydi

Manba: (IFAC, 2018; INTOSAI, 2019; Rossiya Moliya vazirligi, 2010) asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tavsiya etilayotgan darajalar (umumiy — 5 foiz, xatti-harakat — 3,5 foiz, aniq — 1,5 foiz) rivojlangan mamlakatlar amaliyoti bilan to'liq uyg'un bo'lib, sektor koeffitsiyentlari (0,7–1,3) orqali tarmoq xususiyatlariga moslashtiriladi — davlat xaridlari sohasida koeffitsiyent 1,3 gacha oshirilsa, boshqaruv organlarida 0,8 gacha pasaytiriladi. Ushbu qiymatlarni huquqiy mustahkamlash uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ISSAI 1320 talablariga muvofiq «Davlat sektori ichki audit muhimligini aniqlash yo'riqnomasi»ni tasdiqlash taklif etiladi; hujjatda darajalar bilan birga ularni qo'llash tartibi, sifatli muhimlilik mezonlari (qonunbuzarlik, korruptsiya holatlari summa mezonidan qat'i nazar muhimligi — Lima deklaratsiyasi ruhida) va hujjatlashtirish talablari belgilanishi lozim (INTOSAI, 1977).

Muhokama nuqtai nazaridan ta'kidlash joizki, olingan natijalar adabiyotlar sharhidagi xulosalar bilan uyg'un: muhimlilik darajalarini me'yoriy mustahkamlash professional mulohazani cheklamaydi, balki unga shaffof doira yaratadi (Arens va boshq., 2018; Pikket, 2020), Rossiya tajribasidagi «sog'lom fikr tamoyili» esa asoslangan chetga chiqishlarga imkon qoldiradi (Rossiya Moliya vazirligi, 2010). Modelning cheklovlarini ham e'tirof etish lozim: moslashtirish resurs talab etadi — ichki audit xarajatlarining YalMga nisbati (0,18 foiz) oshmas ekan, islohotlar sur'ati cheklangan bo'lib qoladi; shuningdek, huquqiy hujjatlarning o'zi kadrlar salohiyatisiz ishlamaydi, shu bois sertifikatlash tizimi parallel rivojlantirilishi kerak. Taklif etilayotgan model va me'yoriy hujjatlarning joriy etilishi milliy ichki audit amaliyotining xalqaro standartlarga mosligini bosqichma-bosqich oshirib, 2030-yilga borib 95 foizlik etalon darajaga yaqinlashtirish imkonini beradi; bunda model avvalroq ishlab chiqilgan muhimlilik metodikasi, risk matritsasi va riskka yo'naltirilgan rejalashtirish uslubi uchun huquqiy-institutsional asos vazifasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot qo'yilgan maqsad va vazifalarning to'liq bajarilganini ko'rsatdi va quyidagi asosiy

xulosalarga olib keldi. Birinchidan, to'rt mamlakat tajribasining qiyosiy tahlili rivojlangan davlatlarda audit organlarining mustaqilligi, uslubiy hujjatlarning to'liqligi va muhimlik darajalarining uyg'unligi (umumiy — 4,5–5,0; xatti-harakat — 3,2–3,5; aniq — 1,0–1,5 foiz) asosiy muvaffaqiyat omillari ekanini ko'rsatdi; Rossiya va Qozog'iston tajribasi esa siyosiy irodalilik, kadrlar tayyorlash va huquqiy bazani jadal rivojlantirish orqali qisqa muddatda sezilarli natijaga erishish mumkinligini tasdiqladi. Ikkinchidan, milliy huquqiy bazadagi olti bo'shliq (muhimlik metodikasi, risk matritsasi, reja qoidalari, hisobot shakllari, IT-audit bazasi va sertifikatlash tizimining yo'qligi) tizimlashtirildi va har biri uchun ishlab chiqilishi lozim bo'lgan hujjat belgilandi. Uchinchidan, besh tamoyilga (tadrijiylik, milliy o'ziga xoslik, huquqiy muvofiqlik, mablag'-vosita yetarliligi, kadrlar salohiyati) tayangan uch bosqichli (o'rganish — tahlil-adaptatsiya — joriy etish) moslashtirish konseptual modeli ishlab chiqildi va olti ustuvor yo'nalish belgilandi. To'rtinchidan, muhimlikning tabaqalashtirilgan darajalarini (5,0; 3,5 va 1,5 foiz) sektor koeffitsiyentlari (0,7–1,3) bilan milliy me'yoriy hujjatlarga joriy etish takliflari asoslandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1) Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ISSAI 1320 talablariga muvofiq «Davlat sektori ichki audit muhimligini aniqlash yo'riqnomasi»ni ishlab chiqish va unda tavsiya etilgan darajalar hamda sektor koeffitsiyentlarini mustahkamlash; 2) «Risk-xarita tuzish qoidalari» va «Yillik audit rejasi uslubiyati» hujjatlarini birinchi ustuvorlik tartibida tasdiqlash; 3) auditorlarni xalqaro dasturlar (IIA, CIPFA, ICAEW) asosida tayyorlash va milliy sertifikatlash tizimini yaratish; 4) hisobot shakllari, IT-audit nizomi va sertifikatlash nizomini o'rta muddatli istiqbolda bosqichma-bosqich ishlab chiqish; 5) INTOSAI va IIA bilan hamkorlikni kengaytirib, milliy amaliyotning xalqaro standartlarga mosligini muntazam baholab borish.

Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida quyidagilar belgilandi: taklif etilgan yo'riqnoma loyihasini tajriba-sinov tartibida ayrim vazirlik va oliy ta'lim muassasalarida aprobatsiyadan o'tkazish; moslashtirish modelining qolgan yo'nalishlari (hisobot shakllari, IT-audit, sertifikatlash) bo'yicha me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish; moslik darajasining o'sish dinamikasini monitoring qilish uslubiyatini yaratish. Mazkur yo'nalishlar ushbu maqolada taklif etilgan konseptual model negizida rivojlantiriladi va O'zbekiston davlat sektori ichki audit tizimini xalqaro darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida* PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son qarori. «Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/3323258>
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. *Auditorlik faoliyati to'g'risidagi* O'RQ-677-son, 2021-yil 25-fevral // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5307886>
4. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S., Hogan C.E. *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. 16th ed. — Harlow: Pearson Education Limited, 2017. — 832 p.
5. Бычкова С.М., Итыгилова Е.Ю. *Аудит: учебное пособие*. — Москва: Магистр, 2009. — 463 с.
6. Government Accountability Office (GAO). *Government Auditing Standards: 2018 Revision (Yellow Book)*. — Washington, D.C.: U.S. Government Accountability Office, 2018. — 204 p.
7. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. Volume I*. — New York: International Federation of Accountants (IFAC), 2018. — 1021 p.
8. The Institute of Internal Auditors (IIA). *Global Internal Audit Standards*. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. — 77 p.
9. International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI). *INTOSAI-P 1: The Lima Declaration of Guidelines on Auditing Precepts*. — Vienna: INTOSAI, 2019.
10. International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSAI). *ISSAI 2320: Materiality in Planning and Performing an Audit*. — Vienna: INTOSAI, 2019.
11. Office of Management and Budget (OMB). *Circular No. A-123: Management's Responsibility for Enterprise Risk Management and Internal Control*. — Washington, D.C.: Executive Office of the President, 2016.
12. Pickett K.H.S. *The Internal Auditing Handbook*. 3rd ed. — Chichester: John Wiley & Sons, 2010. — 720 p.
13. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. *Budjet nazorati va audit: o'quv qo'llanma*. — Toshkent: InfoCOM.UZ MChJ, 2010. — 192 b.
14. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish // *Iqtisod va moliya*. — 2020. — №3(135). — B. 78–84.
15. Mehmonov S.U. *Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. — Toshkent, 2018.
16. Министерство финансов Российской Федерации. *Федеральные стандарты внутреннего государственного финансового контроля и аудита*. — Москва: Министерство финансов Российской Федерации.
17. OECD. *Public Integrity Indicators: Monitoring and Evaluation Framework*. — Paris: OECD Publishing, 2020.



18. The Institute of Internal Auditors (IIA). *Risk Based Internal Auditing*. — Altamonte Springs, FL: The Institute of Internal Auditors, 2014.
19. Chartered Institute of Public Finance and Accountancy (CIPFA). *Public Sector Internal Audit Standards*. — London: CIPFA, 2017.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100